

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING O'ZBEK TEATRI SOHASIGA QO'SHGAN HISSASI

Qudratov Shuxrat Yodgorovich- BuxDU

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi

dotsenti, t.f.f.d(PhD)

Rajabboyeva Shahnoza Shuhrat qizi

Tarix va yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Behbudiyning vatanimiz tarixidagi buyuk siymolaridan biri ekanligi, Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi bo'lganligi, o'zbek teatri, dramaturgiyasiga qo'shgan hissasi, yaratgan asarlari va uning mazmuniga bag'ishlanadi.

Аннотация: Данная статья посвящена тому, что Бехбуди является одной из великих фигур в истории нашей Родины, признанным лидером Туркестанских джадидов, его вкладу в узбекский театр и драматургию, его произведениям и их содержанию.

Abstract: This article is dedicated to Behbudi's significant role in the history of our homeland, his recognition as a prominent leader of the Turkestan Jadids, his contributions to Uzbek theater and dramaturgy, as well as the works he created and their meanings.

Kalit so'zlar.Teatr, dramaturgiya,qatag'on, taraqqiyparvar, jadid, usuli jadid,usuli savtiya,maorif,senzura.

Основные слова и понятия:Театр, драматургия, репрессии, прогрессивный, новый, новый метод, методологическая наука, просвещение, цензура.

Basic words and concepts:Theater, dramaturgy, repression, progressive, new, new method, methodical science, enlightenment, censorship.

Kirish. Bugungi istiqlool so'nggi yuz yildan ortiqroq tariximizning eng katta armoni bo'lib kelgani hozirda hech kimga sir emas. U dastlab jadidlar nomi bilan tarixga kirgan va sho'rolar davrida "xalq dushmani" tamg'asi bosilib, qatag'on qilingan yosh, zamonaviy, taraqqiyparvar ziyolilarimiz ko'ksida tug'ilib yetilgan edi. XX asr o'zbek maorifu-madaniyati,ehtimolki,bugungi mustaqil tafakkurimiz ular oldida burchlidir."Usuli jadid", "usuli satviya" nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni Turkistonda shular tashkil qildilar. Shular birinchi bo'lib zamonaviy oily maktab g'oyasini ilgari surdilar, o'nlab jamiyatlar, shirkatlar uyushtirib, ular yordamida qanchadan – qancha yoshlarni taraqqiy qilgan Yevropa mamlakatlariga o'qishga yuborishga muvaffaq bo'ldilar. O'zbek teatrining birinchi g'ishtini qo'ygan,

nashru-matbuotini ham boshlab bergan shular. Ular o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloлга tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongini shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar. Rossiya qonunlari imkon bergan darajada Turkiston musulmonlarining sha'nu-sharafini himoya qildilar, inqilob yillarida esa mustaqillik bayrog'ini baland ko'tardilar. Ne baxtiki, ular orzu qilgan istiqloл bizga nasib etdi. Ularning miliy pul, milliy qo'shin, milliy tarbiya kabi juda ko'p dardu armonlari bugun davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarilib, bosqichma-bosqich hal qilinmoqda. Binobarin, ular bizga bugun har qachongidan ham yaqindirlar.

Maxmudxo'ja Behbudiy turkiy dunyoning eng yorqin, buyuk siymolaridan biri xususida mushohada qilish bo'lsa, ikkinchidan o'zbek millatining ijtimoiy ongini belgilagan qator sohalarning otasi, boshlovchisi haqida fikr yuritish demakdir. Jumladan, matbuot, milliy teatr va dramaturgiya sohalarining ham peshvosidir¹.

Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmas edi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra bilsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyini teatr va matbuot sari boshladi².

Behbudiyning "Padarkush" p'esasi 1911yilda yozilgani muallif tomonidan ham, zamondoshlari va boshqa olimlar tomonidan ham e'tirof etilgan. Demak, Padarkush asari xronologik tartibda milliy, lisoniy jihatlariga ko'ra birinchi o'zbek sahna asaridir. Ham iqtisodiy, maishiy turmushdagi qoloqlikni bartaraf etish, ham Chor asoratini yo'qotish jadidchilikning barcha jabhalarida aks etdi. Shu jumladan, teatr va dramaturgiyada ham, binobarin uning ilk milliy namunasi Padarkushda ham aks etgan.

Behbudiy 1909 yildayoq "Ehtiyoji millat" maqolasida yozadi: "Biz turkistonliklarga ikki sinf kishilari lozimdurki va bu ikki sinf kishilarisiz bizni diniy va dunyoviy ilmlarimiz, millat va qavmiyatimiz, maishiy ehtiyojimiz xarob bo'lib, kundan – kun begona millatlarning zabuni va mahkumi bo'lurmiz... (ya'ni, bu ikki sinf) zamondan bexabar ulamoi diniya va dindan boxabar ulamoi zamoniya. Ana shu ikki qarash "Padarkush" pesasining g'oyaviy negizini belgilagan".

Asar mazmuniga ko'ra, bir boy odam o'zi savodsiz bo'lgani holda farzandini ham ilmi qilmoqchi emas. O'g'li o'spirin yoshiga yetsada, maktab ko'rmagan. Ota bundan mutlaqo tashvishlanmaydi. Chunki o'ziga ota meros mulk qolib, boylikdan behuzur yashaganidek, o'g'li ham shu taqdirni takrorlaydi, degan o'yda. Asar muallifi boy fikrini o'zgartirish uchun o'z davri ma'rifatining ikki vakili, eski maktab domlasi va usuli jadid targ'ibotchisi ziyolini uning huzuriga ko'rsatadi. Avval domla, so'ng ziyoli

¹ Rizayev Sh. Istibdodga qarshi isyon. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" 1995 yil 23 iyun

² Behbudiy. Tanlangan asarlar. –B. 10-11.

kelib boyning o'g'li Toshmurodni maktabga berib, ilmi diniy va ilmi zamondan bahramand etishga da'vat qiladilar. Bu so'zlarga beparvo, bepisand boy har ikki mehmondan ham ranjib, ularni bir amallab haydash chorasini izlaydi. Otaning bema'ni hayot tarzini ko'rib o'sgan farzand uch - to'rt bezori, chapani yigitlarga qo'shilib, ichkilikka beriladi, maishiy buzuqlikka mayl bildiradi va oxir-oqibat ana shu ehtiyojlari uchun mablag' istagida otasining kushandasiga aylanadi³.

Pyesaning dunyo yuzini ko'rishi oson kechmadi. Bunga sabab, Chor hukumati mustamlaka Turkistonning ma'rifat yo'liga kirib, o'z huquqini tanishidan manfaaddor emasdi. Bu asar 1912 yilda Buxoroda chiqib turgan "Turon" gazetasida bosila boshlandi. Lekin pesaning alohida kitob bolib bosilishi va sahnalashtirilib tomoshabinlarga ko'rsatilishi Chor senzurasining to'siq va qarshiliklari oqibatida ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechiradi⁴.

Avvalo, asarning 1913 yil Samarqandda ilk bor nashr etilgan nusxasi titul sahifasidagi bag'ishlov e'tiborni tortadi. Unda muallif o'z asarini 1912 yili "Borodino maydonidagi jang va bu jangda Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lgani" sanasiga bag'ishlanganini qayd etgan. Senzura sarsongarchiliklari va tazyiqidan bezor bo'lib, bag'ishlov bitgan Behbudiy shunda ham o'z maqsadini dabdurustdan kishi sezmaydigan bir tarzda ifodalab ketadi, ya'ni Rossiyaning istibdod xavfidan qutulgani sharafiga asoratdagi "Turkiston maishatidan olingan asar" ekanini mantiqan ta'kidlaydi. Vaholanki, shu paytda yozilgan aksariyat asarlarda bag'ishlov odatda, asosan oq pashsho va uning avlod - ajdodlari, rafiqasi sharafiga bo'lardi. Behbudiy bu an'anani ongli ravishda buzadi va fikrini boshqa siyosiy maqsadga yo'naltirish yo'lini o'ylab topadi⁵.

Senzuraning Tiflis komitetiga yuborilgan asar oradan ikki yil o'tgach, 1913 yil 23 iyulida ruxsat etilgan nusxasining muqovasida "Razresheno" senzuroyu Tbilisskoy komitetom po delam pechate k postanovke na senax Kavkazskogo kraya. 23. 03. 1913 g. Xan - 19940 deb yozilgan edi. Shundan so'ng, bu pyesa 1913 yil Samarqandda Gazarov va Sayanov matbaasida bosilib chiqadi⁶.

Pyesa bosilib chiqqandan so'ng ham sahnaga qo'yish uchun yana bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqda: "O'ynaturg'on odam yo'q. Azbaski, Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatru sahnaga chiqib masqarabozlik qilsa". Lekin shunga qaramasdan, oradan ancha vaqt o'tgach, samarqandlik bir necha mahalliy o'zbek-tatar, ozarbayjon teatr havaskorlari tomonidan "Padarkush" sahnaga qo'yilganligi va tomoshabinlarga katta qiziqish uyg'otib, o'lkada teatrga bo'lgan havas va qiziqishni kuchaytirib yuborgaligi yozib o'tiladi⁷.

³ Rizayev Sh. Istibdodga qarshi isyon. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" 1995 yil 23 iyun.

⁴ Raxmonov M. O'zbek teatri tarixi. Toshkent, 1992. –B.280.

⁵ Rizayev Sh. Istibdodga qarshi isyon. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" 1995 yil 23 iyun.

⁶ Raxmonov M. O'zbek teatri tarixi. –B.280.

⁷ Behbudiy. Tanlangan asarlar. –B. 11.

“Padarkush” o‘zbek dramachiligining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasi. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan asar sifatida baholaydilar. Muallif “Milliy fojia” deb atagan 3 parda, 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo‘n. “Padarkush”da asorat tufayli fojialar yuz berayotganiga yana bir ishora – bu asardagi “povoxona manzarasi”dan anglashiladi. Uch-to‘rt kuchga to‘lgan, navqiron yigitlar o‘spirin Toshmurodboyvachchani yonlariga olib, ichkilik ichib, mast holatda o‘tirganlarini ko‘rsatar ekan, Behbudiy Rossiya maishiy hayotidan Turkistonga kirib ildiz otgan ichkilikning musulmon yoshlari uchun xunuk ommaviy hodisaga, ofatga aylanganini ta’kidlamog‘chi bo‘ladi. Ilm va tarbiyasiz bolalarning oqibati shudir. Agarda bular otasi o‘qitsaydi, bu jinoyat va padarkushlik sodir bo‘lmasdi. Haqiqatda boyni o‘ldirgan va yigitlarni azobi abadiyga giriftor qilgan ilmsizlikdir. Bu ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qimoq va o‘qitmoqdan boshqa iloj yo‘qdir. “Padarkush” pesasida ilgari surilgan g‘oya ana shu so‘zlarda aks etadi. Shuga ko‘ra ko‘pgina mutaxassislarimiz uni sof ma’rifiy xarakterdagi asar sifatida baholab keladilar.

Xulosa.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o‘z davrining ijtimoiy – siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyondasi yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, “yangi maktab” g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisidir. O‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatr, noshir, jurnalist edi. U tariximizning g‘oyatda og‘ir va murakkab bir davrida yashadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov B. Behbudiy va jadidchilik. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”
2. Rizayev Sh. Istibdodga qarshi isyon. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 1995 yil 23 iyun.
3. Behbudiy. Tanlangan asarlar. –B. 10-11.
4. Rizayev Sh. Istibdodga qarshi isyon. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 1995 yil 23 iyun.
5. Raxmonov M. O‘zbek teatri tarixi. Toshkent, 1992. –B.280.
6. Rizayev Sh. Istibdodga qarshi isyon. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 1995 yil 23 iyun.
7. Raxmonov M. O‘zbek teatri tarixi. –B.280. Behbudiy. Tanlangan asarlar. –B. 11.
8. Turdiyev Sh. Behbudiy. “Muloqot” 1991 yil, 3-4-sonlar.
9. Rizayev Sh. Istibdodga qarshi isyon. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 1995 yil 23 iyun

10. Behbudiy. Tanlangan asarlar. –B. 12.
11. Turdiyev Sh. Behbudiy. “Muloqot” 1991 yil, 3-4-sonlar.
12. Rizayev Sh. Istibdodga qarshi isyon. “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” 1995 yil 23 iyun.
13. Ahrorova Z. Behbudiya kutubxonasi. “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” 1995 yil 17 fevral.
14. Ahrorova Z. Behbudiya kutubxonasi. “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” 1995 yil 17 fevral.